

FAZLIDDIN O'TAGANOV

1. Bir kun mag'ur tilshunos sohilda turgan qayiqqa minib narigi qirg'oqqa o'tmoqchi bo'ldi. Sohilda yo'lovchi kutib turgan qayiqchilardan biriga yuzlandi. Qayiq yaqinlashdi. Olim qayiqqa o'tirdi. Dengizni tomosha qilib ketayotgan olim qayiqchidan so'radi:

– Sen hech nahv o'qiganmisan?

– Yo'q, men johil bir qayiqchiman.

Olim:

– E voh, juda xafa bo'ldim. Demak, yarim umring behuda o'tibdi, — deya achinib qayiqchiga qaradi.

Shu vaqt dovul turdi. Keyin dengizning o'rtasida chayqala boshladi, qayiqchi butun kuchi bilan xavfdan qutulish uchun harakat qildi. Bo'ron borgan sayin kuchayar, qayiq esa cho'kish arafasida edi. Shu vaqt qo'rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan qayiqchi so'radi:

– Ey, har narsani bilgan olim do'stim. Suzishni bilasanmi?

– Yo'q javobini olgan qayiqchi:

– Voh, voh, sen umringni behuda sarflabsan. Hozir butun umring ketdi. Chunki birozdan keyin qayig'im cho'kadi. Yaxshi bilginki, bu yerda hozir nahv (grammatika) emas, mahv ilmi lozim. Agar mahv ilmini bilsang, qo'rqmasdan dengizga sakra, — dedi.

(Jaloliddin Rumiy, «Masnaviy»)

Ushbu matnda qanday mazmunli so'zlar ishtrok etganligini toping.

1) tilning sintaktik qurilishi haqidagi soha; 2) o'qimagan, savodsiz kishi; 3) kuchli shamol; 4) yomg'ir aralash kuchli shamol; 5) daf qilish, yengish

A) 1,3,5

B) 2,4,5

C) 1,2,3

D) 1,2,3,4,5

(Manba: 8-sinf. 2019)

2. Sof fe'l va ba'zan ravishdosh bilan ifodalanadigan gap bo'lagi nomi nima?

A) kesim

B) hol va kesim

C) ega va kesim

D) hol

(Manba: 8-sinf. 2019)

3. Qaysi birlik o'zaro “o'xshash” emas?

so'z qo'shilmasi¹, qo'shma so'z², so'z birikmasi³, hisob so'z⁴

A) 2

B) 4

C) 3

D) 1

(Manba: 8-sinf. 2019)

4. Rasmga diqqat qiling. Topshiriqlarga xato izohning qaysi qatorda berilganligini aniqlang.



307-mashq. Rasmdagi joy nomini toping. U yerda bo'lganmisiz? Bormagan bo'lsangiz, borishni orzu qilasizmi? Bu joy nomi qanday ma'noni anglatadi?



A) Ichan qal'a tasviri ko'rsatilgan.

B) Ilk rasm—asosiy kirish binosi.

C) Kalta minor tasviri mavjud.

D) Islom Karimov maqbarasi tasvirlangan.

(Manba: 5-sinf. 2020)

5. “Og'ayni chalish—bir poy kalish” gapidagi “bir poy kalish” birikmasi hozir deyarli iste'moldan chiqqan: “og'ayni chalish”ning o'zi qolgan.

Og'ayni chalish birikmasining leksik nomini toping.

A) ibora

B) so'z birikmasi

C) gap

D) qo'shma so'z

(Manba: 5-sinf. 2020)

6. Balandlamoq¹, yuqorilamoq², o'r'lamoq³, ko'tarilmoq⁴

Sinonimlar qatoridagi (A. Hojiyev) qaysi so'z boshqalaridan ko'ra kam qo'llanadi?


A) 1

B) 2

C) 3

D) 4

(Manba: 5-sinf. 2020)

7.  shakl yasovchi shakl yasovchi
+ko'makchi

Ushbu shartli belgilarga mos qaysi so'z hol vazifasini bajargan?

- A) Kiyik tokzorlarni qidirib qoldi.
- B) Beaqlligi uchun ota-onasini uyatga qo'ydi.
- C) Muhammadjon uyqusiragani uchun injiqlik qilyapti.
- D) Bedazorlardagi bedanalar qochib ketdi.

(Manba: 6-sinf. 2017)

8. Quyidagilardan o'zbek tiliga qarindosh nechta til borligini aniqlang.

Rus, ingliz, qozoq, fransuz, tojik, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq, xitoy, tatar, arab, koreys, ukrain

- A) 5 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 4 ta

(Manba: 6-sinf. 2017)

9. O's, yoz, ket, qol so'zlarining hech biriga qo'shila olmaydigan orttirma nisbat shaklini ko'rsating.

- A) -tir(-dir) B) -giz (-kiz)
- C) -ar(-iz) D) -kaz

(Manba: 6-sinf. 2017)

10. Quyidagi topshiriq bajarilsa, nechta so'zning tovush o'zgarishi undosh tovush bilan bog'liq bo'ladi?

110-mashq. Quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchasini qo'shing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bo'g'iz, burun, qo'ziqorin, haq, o'yin, bag'ir.

- A) 2 ta B) 1 ta C) 3 ta D) 0 ta

(Manba: 7-sinf. 2017)

11. Qaysi turkum so'zlari yetakchi so'zga qo'shilib unga turli qo'shimcha ma'nolar yuklaydi?

- A) ko'makchi B) olmosh
- C) modal D) bog'lovchi

(Manba: 7-sinf. 2017)

12. *Uchun, tomon, bilan, hamda, va, biroq, ichida, hamisha, ammo, ketmoq, yo...yo, chunki*

Bularning ichidan bog'lovchilarni ko'rsating.

- A) tomon, bilan, ammo, chunki
- B) bilan, hamda, biroq, ichida, ammo, yo...yo, chunki
- C) bilan, va, biroq, hamisha, ammo, ketmoq, chunki
- D) bilan, hamda, va, biroq, ammo, yo...yo, chunki

(Manba: 7-sinf. 2017)

13. **Qo'shning tinch-sen tinch.**

Berilgan qo'shma gap qismlari orasiga qaysi bog'lovchi vositani qo'yib unga hammazmun qo'shma gap hosil qilib bo'lmaydi?

- A) shuning uchun B) va
- C) ammo D) -u

(Manba: 9-sinf. 2019)

14. *Opti, ko'ynak, kepti, bo'sa, na'lat* so'zlarining funksional bo'yoq turini toping.

- A) salbiy B) betaraf
- C) so'zlashuv D) sheva

(Manba: 10-sinf. 2017)

15. Nutq madaniyligi buzilmagan gap(lar)ni toping.

- 1) Otning jilovini siltab tezlashini qistadi.
- 2) Xayolim uni tasavvur qilar edi.
- 3) Chol eh-he deb yo'taldi.
- 4) Ochiq derazadan mayning mayin shamoli esadi.
- 5) Yuragim tutday to'kildi.
- 6) Jalanglab turgan qora ko'zlari ko'zimga sanchilar edi.

- A) 2 B) barchasida buzilgan
- C) 4 D) 1,5

(Manba: 11-sinf. 2018)